



TASHKENT  
PHARMACEUTICAL INSTITUTE

TALABALAR ILMIY JAMIyatining an'anaviy 79-ILMIY ANJUMANI



"INSON QADRINI ULUG'LASH VA FAOL MAHALLA YILF" GA  
BAG'ISHLANGAN  
RESPUBLIKA TALABALAR ILMIY JAMIyatining an'anaviy  
79-ILMIY ANJUMAN TO'PLAMI

Har bir usulda olingan suyuq ekstrakt tarkibidagi ekstraktiv moddalar miqdori aniqlandi va quyidagi texnologiya mo'tadil deb tanlab olindi.

Havoda quritilib maydalangan xom ashyo 70% etil spiriti bilan bo'tirildi va 6 soatga qoldirildi. Belgilangan vaqt o'tgach uch marta takroran ekstraktsiya qilindi. Xom ashyo va ekstragent nisbati 1:10 ni tashkil qildi. Ekstraktlar birlashtirilib, filtrlandi va so'ngra quyultirildi. Quyuq massani mikrokristallik sellyuloza (MKTs) bilan aralashtirildi va 80° C harorat ostida quritildi. Quruq massa maydalandi. Ekstraktlarni quruq massasiga MKTsni nisbati 1:1 ni tashkil etdi. Ushbu usulda olingan ekstraktda ekstraktiv moddalar unumi xom ashyo og'irligiga nisbatan 18,3 % ni tashkil etdi.

**Xulosa.** Tadqiqotlar natijalarga ko'ra yong'oq bargidan 70% etil spiriti yordamida uch marotaba takrorlangan matseratsiya usulida 1:10 ga teng bo'lган gidromodulda olingan quruq ekstraktda ekstraktiv moddalarining unumi eng ko'p bo'ldi va shu sharoitlar optimal deb belgilandi.

#### Adabiyotlar.

1. Дайронас Ж.В., Зилфикаров И.Н., Верниковский В.В. Способ получения экстракта листьев грецкого ореха. Пат. РФ 2632488, МПК A23L33/105, № 2015130718, заявл. 23.07.2015, опубл. 05.10.2017.
2. Дайронас Ж.В. Разработка методики количественного определения нафтохинонов в корнях синяка русского // Изв. высших учеб. заведений. Северо-Кавказ. регион. Естественные науки. Спец вып.–2006.–С.47-48.
3. Еникеева Р. А. Орех грецкий Juglans regia L. и его применение в медицинской, в том числе гомеопатической практике / Сб. научных трудов «Российский гомеопатический съезд» (19-21 октября 2007 г). - М.:2007.-С.216-217.

## UROLOGIK TINDIRMA TARKIBIDAGI FLAVONOIDLAR MIQDORINI SPEKTOROFOTOMETRIK USULDA ANIQLASH

**A.S.Fayzullayev, N.X.Tashpulatova**

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

e-mail: [tashpulatovanasibakhon@mail.ru](mailto:tashpulatovanasibakhon@mail.ru)

tel:+99897705-80-04

**Kirish.** Bugungi kunda Respublika aholisining dori darmonga bo'lган ehtiyojini to'laroq qondirish, yuqori biosamaradorlikka ega bo'lган mahalliy o'simliklar xom ashysosi asosida arzon, kam xarajatli va yuqori samarali dori vositalarini yaratish, farmatsevtika sohasining dolzarb vazifalaridan bo'lib hisoblanadi. Bizning izlanishlarimiz ob'ekti bo'lган kiyik o'ti er ustki qismi (Ziziphora Pedicellata Pazij et Vved), tubulg'ibargli bo'ymodaron er ustki qismi (Achillae filipendulina L.), chuchukmiya ildizi (Glycyrrhiza glabra L.) dan olingan urologik yig'madan uning biologik faolligi va zahirasi etarligini hisobga olgan holda, tindirma texnologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning echimi tibbiyot

amaliyotida buyrak, yurak va jigar kasalliklarida diuretik ta'sir etuvchi mahalliy dori vositalarining turini oshirishga imkon beradi.[1]

**Ishning maqsadi:** Urologik yig'madan olingan tindirma tarkibidagi flavonoidlar miqdorini spektrofotometrik usulda aniqlash.

**Natija:** Urologik yig'madan olingan tindirma tarkibidagi flavonoidlar miqdorini aniqlashda spektrofotometrik usuldan foydalanildi.[2] Tahlil UV-1900 rusumli spektrofotometrda olib borildi. Buning uchun 1ml tindirma 25ml li o'lchov kolbasiga solindi, 5ml 96% li etil spiriti, 5 ml 5% li alyuminiy xloridning 70% li etil spirtidagi eritmasi qo'shildi, 10 minutdan so'ng 2 ml 5% li sirkal kislotasining 70% li spirtdagagi eritmasi qo'shilib, hajmi 70% li etil spirti bilan belgisigacha yetkazildi va aralashtirildi. 30 daqiqadan so'ng ishchi eritmaning optik zichlik spektrofotometrda to'lqin uzunligi 408nm, kyuvetta qalinligi 10mm da o'chandi. Parallel ravishda standart eritma (rutin) ning optik zichligi aniqlandi. Flavonoidlarning rutinga nisbatan miqdori (mg/ml) quyidagi formula bo'yicha hisoblandi.

$$X = \frac{0.632 \cdot 26.8 \cdot 99.8 \cdot 1 \cdot 25}{0.227 \cdot 100 \cdot 100 \cdot 25 \cdot 1} = \frac{0.632 \cdot 26.8 \cdot 99.8}{0.227 \cdot 10000} = 0.74 \text{ mg/ml}$$

Bu yerda :

0.632- ishchi eritmaning optik zichligi

0.227- standart eritmani optik zichligi

26.8- standart(rutin) namuna massassi, mg

99.8- standart eritmadiagi rutinning foizdagi miqdori

**Xulosa:** Ilk marotaba kiyik o'ti er ustki qismi (*Ziziphora Pedicullata* Pazij et Vved), tubulg'ibargli bo'ymodaron er ustki qismi (*Achillae filipendulina* L.), chuchukmiya ildizi (*Glycyrrhiza glabra* L) dan tindirma texnologiyasi ishlab chiqildi. Tindirma tarkibidagi flavonoidlar miqdori spektrofotometrik usulda aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra 1ml tindirma 0.74mg rutin saqlashi aniqlandi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:

1. Faranova N.T., Pulatova L.T., Mambetova D.I., Nurullaev A.D., Khudoykulova D.K. chemical composition of the urology collection // химия растительного сырья, 2021. № 1. с.227-232.url:
2. О. Р. Сорокина, Е.Г.Сумина, А.В. Петракова, С.В. Барышева. Спектрофотометрическое определение суммарного содержания флавоноидов в лекарственных препаратах растительного происхождения известия саратовского ун-та. Новая серия. Сер. Химия. Биология. Экология. 2013. Т. 13, вып. 3 стр 8-11.